

BADIIY TARJIMADA UCHRAYDIGAN ASOSIY XATOLAR

Xojimirzayeva Dilfuza Muxammadjon qizi
To'raqo'rg'on tuman 2-son kasb-hunar maktabi
Ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjimashunoslikdagi paydo bo'ladigan umumiy muammolar mavzulari yoritilgan. Shuningdek, tarjimashunoslikning hozirgi davrdagi talabi va uning jamiyatdagi o'рни ko'rsatilib ketilgan. Muallifning vazifasi badiiy adabiyotda rangli ifodalardan foydalanishdir. Aksincha, bu muallifning ijodiy fikrlashini rivojlantirish uchun ishlatilgan tilning murakkabliklarini aks ettiruvchi vosita. Badiiy matnlarni tarjima qilishda tarjimonning vazifasi muallifning niyatini o'zi tarjima qilayotgan tilda to'liq yetkazishdir. Badiiy adabiyotda ranglar qahramonga murojaat qilish uchun ham keng qo'llaniladi va uning xarakteriga asoslanadi. Quyida shu haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: matn, tarjima, leksika, atama, tarjima muammolari, transformasiya (o'zgarish), ma'lumot, tarjimashunoslik, , muloqot, madaniyat, norma.

MISTAKES IN ARTISTIC TRANSLATION MAIN

Abstract: This article covers the topics of common problems in translation studies. Also, the current demand of translation studies and its role in society are shown. The task of the author is to use colorful expressions in fiction. Rather, it is a tool that reflects the complexities of the language used to develop the author's creative thinking. When translating literary texts, the task of the translator is to fully convey the author's intention in the language he is translating. In fiction, colors are also widely used to refer to a hero and are based on his character. More on this below.

Key words: text, translation, lexicon, term, translation problems, transformation (change), information, translation studies, communication, culture, norm.

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi sababli, bugungi davrda dunyoning turli mamlakatlaridagi olimlar tezkor ma'lumot almashish va qo'shma tadqiqotlar olib borish imkoniyatlariga ega bo'lib, ushbu aloqa vositalari tufayli zamonaviy ilmfan misli ko'rilmagan natijalarga erishilmoqda. Bunday sharoitda ko'pgina ishlab chiqaruvchi tashkilotlar ilmiy adabiyotlarning yuqori sifatli tarjimasiga ehtiyoji sezilarli darajada oshib bormoqda. Tarjimonlar esa ilmiy adabiyotlar tarjimalarini doimiy ravishda o'zining so'z boyligiga qo'shib borishi, atamalarni tushunish qobiliyatini oshirib borish va ularning ma'nosini bilishi shartdir.

Ma'lumki, badiiy tarjimada milliy kolorit tushunchasi bizga noma'lum bo'lgan xalqning urf-odatlarini, hayot tarzi, umumiy olganda, milliy xususiyatlari tushuniladi. Shunday ekan, milliy koloritni saqlagan holda eng maqbul usullardan to'g'ri foydalanib tarjima qila olgan tarjimonni shakl-shubhasiz o'z kasbining ustasi deyish mumkin. Misol uchun, o'zbek tilida uchragan so'zlar va tushunchalar boshqa tillarda bo'lmasligi yoki mazmun, shakl, hajm jihatdan farq qilishi mumkin. Lekin aynan milliylikimizni ifoda etadigan vositalar ham shulardan ekanligini hisobga olgan holda madaniyatimizning o'ziga xos qirralarini o'quvchiga yetkazib berishda uning tarjima muammolari barchamizning oldimizda ko'ndalang turibdi.

Bugungi kunda zamonaviy globallashuv va madaniyatlararo aloqalarning jadal rivojlanishi, xalqaro aloqalarni kengayib borishi, davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va moliyaviy aloqalarning rivojlanishi, Yevropa mamlakatlari va butun dunyoning integrallashuv jarayonining kuchayib borishi, fan va texnologiyalarning rivojlanishi, ilmiy va texnikaviy ma'lumotlarning doimiy ravishda uzviy almashib borishining samarali omillari sifatida hozirgi kunda chet tillarining ahamiyati katta e'tiborga sazovordir. Shuningdek, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy taraqqiyot bosqichida chet tili dunyoning turli xalqlar vakillari o'rtasida og'zaki va yozma aloqa vositasi sifatida keng qo'llanilib kelmoqda. Ilmiy tafakkurning yetakchi shakllaridan biridir va u ma'noni anglash va idrok etish tushunchalari bilan bog'liqdir. Ilmiy matndagi deyarli har bir atama leksik birlik bo'lib turib, u maxsus leksik birliklar ma'nolaridan birini ifodalaydi. Bu leksik birliklar esa atamalar kategoriyasiga mansubdir. Umuman olganda atama bu fan va texnologiyalar kesimida ma'lum bir sohaga xos bo'lgan so'z yoki iboradir. Atama tilshunoslikda aniq semantik chegaralarga ega. Shundan kelib chiqadiki, atamalar bu ma'lum bir fanga tegishli og'zaki iboralar bilan mustahkamlangan tushunchalar tizimidir. Agar umumiy tilda (atamadan tashqari) so'z ko'p manoga ega bo'lsada, u atamalar kategoriyasiga tushib qolsa, ushbu so'z aniq ma'noga ega bo'lib qolib, tarjimada esa uning atamadagi ma'nosi qo'llaniladi. Shu sababli, tarjimonning ilmiy matnni tarjima qilishda yo'l qo'yadigan asosiy xatolaridan biri bu ilmiy lug'atlardan foydalanish qobliyatini yetarlicha ko'nikmalar mavjud emasligi yoki atamaga xos bo'lgan mavzuni aniq ma'lumotga ega emasligidir - bu xolat xatto o'z ona tilida ham kuzatilishi mumkin.

Badiiy tarjima bilan shug'ullanadigan tarjimondan nafaqat xorijiy tilni puxta egallashi, balki shu til tarixini, madaniyatini, xalqaro madaniy aloqalarga oid bilimlarni, psixologiya sohasini, xalqlar va dinlar tarixini bilishi ham talab etiladi. Tildan universal vosita va etnik madaniyat sifatida foydalanish mumkin. Lekin madaniyatni tilga oid birliklarda semantika shaklida ko'rsata olish uchun yuqorida sanalgan sohalarda yuqori bilimga ega bo'lish muhimdir. Shuning uchun xorijiy tilni puxta o'rganishda albatta shu tilni professional o'rganish bilan bir qatorda shu tilning metodikasini, madaniyatini, adabiyotini, mamlakatshunosligini, og'zaki va yozma tarjima nazariyasi va amaliyoti

fanlarini ham qo'shib o'rgatishga jiddiy ahamiyat berish kerak. Natijada bo'lajak mutaxassis shu xorijiy tilni chet tilida yozilgan manbaalardan qabul qila oladigan va baholaydigan darajaga yetishi, tarixiy va madaniy merosga hurmat va e'tibor bilan yondashishi, ma'lumotlarni ijtimoiy va madaniy nuqtai nazaridan farqlay olishi, badiiy tarjimani amalga oshirishda mantiqiy ketma-ketliklardan foydalana olishni shakllantirishi, asl matndagi mohiyatni buzmasdan tarjimada to'g'ri ochib bera olishi professional darajaga ko'tariladi.

Xulosa qilib aytganda, milliy so'zlarni tarjima qilish jarayonida tarjimondan ushbu usullarning yutuq va kamchiliklarini hisobga olib milliy koloritni saqlagan holda tarjima qilish talab etiladi. E.Ochilov ham o'zining "Badiiy tarjima masalalari" kitobida asar tarjimasida milliy koloritni saqlab qolishga bag'ishlangan qismini "Muammolar muammosi" deb atagani bejiz emas, albatta. Shunday ekan, tarjima usulini tanlashda matnning uslubiy hamda janr xususiyatlaridan kelib chiqib tarjima qilish, ayniqsa ahamiyatlidir. Badiiy adabiyot borki, albatta uni tarjima qilishga talab va ehtiyoj bo'ladi. Shunday ekan tarjima maktablarimizni kelajakda munosib o'rnini topishini ta'minlashimiz uchun tarjimonlarni qo'llab-quvvatlashimiz, ham nazariy, ham amaliy bilimlarni puxta egallashlariga shart- sharoitlarni yaratib berishimiz kerak.

REFERENCES:

1. G'.Salomov "Til va tarjima"-1966
2. E.Ochilov "Badiiy tarjima masalalari"-Toshkent, 2014.
3. Musaev.Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005. O'quv qo'llanmalar
4. Salomov G. Tarjima nazariyasi asoslari. -Toshkent: O'qituvchi, 1983 yil.
5. Juraev K. Tarjima sanati. - Toshkent: Fan, 1982 yil
6. Shveytsar A.V. Tarjima va tilshunoslik. - Moskva, 1973 yil